

“16” mart 2022 yil

Nurota tuman

Keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladigan Nurota tumani Xalq ta’limiga qarashli 52-maktab nomidan «Nizom» asosida ish yurituvchi B.Bobonazarov bir tomongan, keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladigan "GREAT-FUTURE-CONSTRUCTION" x/k nomidan “Ustav” asosida ish yurituvchi R.Xo‘jaev ikkinchi tomongan, Nurota tumani 52 son umumta’lim maktabi binosini joriy ta’mirlash ishlari mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar

### I. TARIFLAR

1. Bajariladigan qurilish ishlari loyihaga asosan olib boriladi, berkitiladigan ishlari tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar va bajarilgan ishni buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomasi (Forma-2) asosida ish olib boriladi.

**qurilish maydoni** - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob‘ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilab qo‘yiladi;

**vaqtinchalik inshootlar** - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o‘rnataladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan har qanday tipdagli vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlar** - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo‘limgan keyinchalik bajariladigan ishlari va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlari;

**shartnoma narxini bo‘lib chiqish** - ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo‘yicha ob‘ektning umumiyligi bosqichlarga taqsimlash.

### II. SHARTNOMA MAVZUSI

2. “Pudratchi” mazkur shartnoma shartlariga ko‘ra Nurota tumani 52 son umumta’lim maktabi binosini joriy ta’mirlash ishlari summasi 196 500 500 so‘m bo‘yicha qurilish ishlarni bajarish majburiyatini oladi. “Buyurtmachi” esa “Pudratchi” ga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

### III. SHARTNOMA BO‘YICHA

#### ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va erkin tanlov komissiyasining qarori (2022 yil 10-martdagي bayonna) bilan tasdiqlangan ishlari qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarini o‘z ichiga olgan holda joriy narxlarda 196 500 500 (Bir yuz to‘qson olti million besh yuz ming besh yuz so‘m) ni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno: qurilish qiymatini ko‘paytirishga engib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda; ishlar hajmi va turi qat’iy ravishda o‘zgartirilmaydi (qonunda kuzda tutilgan xollar bundan mustasno); ob‘ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o‘zgartirilganda.

5. Qurilish muddati Bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, sanab o‘tilgan o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘sishma bitim bilan rasmiylashtiriladi.

### IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

7. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun: barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

SHartnomaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta’minalash, shuningdek yoritish chiroqlari o‘rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish;

qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta’minalash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy jarob beradi.

## V. BUYURT MACHINING MAJBURIYATLARI

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:  
mazkur shartnoma imzolangan kundan bosholab uch kun muddatda mazkur shartnomaga - ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish; ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish; Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; Pudratchining barcha murojaatlарини о'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; molivalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga avans berish va joriy molivalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish; mazkur shartnomadagi mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

10. SHartnoma: milliy valyuta "so‘mda" o‘zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so‘mda" o‘zaro hisob-kitob qilinganda 10-shartnoma qonun hujjalariiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlarni boshlangan kundan e'tiboran kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar Smeta xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

## VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

VII. TOLOVALAR VA HISOB-KITOBALAR  
14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnomaga bo'yicha ishlar umumiyligi joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu 58 950 150 (58,95 million so'qiz yuz ellik ming bir yuz ellik so'm) ni tashkil etadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berilgandan so'ng, keyingi tulov "Bajarilgan ishlar" dalolatnomasiga (forma-2)

15. Buyurtmachi tomonidan foydalaning avans berilganda qidiruvchilarning shartnomalariga asosan amalga oshiriladi.

16. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnomaga bo'yicha ob'ektning tasodisiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodisiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH

18. Budgetchi ishlarni bajarish joyihasiga asosan ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

18. Pudratchi ishlarni bajarish loyinasiiga asosan ishlarni bajarishini etibariga qo'shish  
19. Pudratchi ob'ektida ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rivoja etilishi uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda javob beradi.

20. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

21. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnomaga bilan bir vaqtida Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish beradi.

22. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, axlatini joylashtirish va etishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarini beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo‘lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi  
tuttimiqlik shartlarda tajisibli tuzatishlarini o‘z hisobidan kiritadi.

bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

23. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarda o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilaringin joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

24. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

25. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

26. Alohiда мас'уліяттің конструқцияларынан және беркітілдігінен шығарылған ішшілер тауып болышынан көрініс анықтауда хабардық салынады.

26. Aromda hukm bayrami yozma ravnayish u "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasini yozma rav-

27. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig‘isiz bajarilgan bo‘lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo‘lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo‘lsa, u holda uning talabi bo‘yicha Pudratchi Buyurtmachining ko‘rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o‘z hisobidan ochishga, so‘ngra esa uni tiklashga majburdir.

28. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o‘z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko‘paytirmsandan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta’minalash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to‘laydi.

29. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko‘cha polosasini, shu jumladan yo‘l uchastkalari va yo‘laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o‘zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo‘lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo‘lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o‘tkazilgan sinovlar, materiallar o‘z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bog‘liq to‘xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan barcha ma’lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o‘z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko‘rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish choratadbirlarini ko‘rish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

## IX. ENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

31. Agar ushbu shartnomma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa engib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to‘liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddati engib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar engib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnomma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## X. KAFOLATLAR

34. Pudratchi:barcha ishlar to‘liq hajmda va mazkur shartnomma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiqa hujjatlariga hamda qurilish me’yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish majburiyatini; o‘zi tomonidan qurilish uchun qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ob’ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nusonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

35. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko‘rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo‘yicha xo‘jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

## XI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

36. Buyurtmachi: shartnomma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko‘p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko‘paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnomma shartlari qurilish me’yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

37. Pudratchi: ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to‘xtatib qo‘yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

38. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan eurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlari qiyomatini Pudratchiga to'laydi.

39. Mazkur shartnomani bekor eilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

40. SHartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomona ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

41. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## XII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

42. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga etkazilgan zararlari qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

43. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rivoja qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.3 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlari yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiyamatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachi shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

44. SHartnomaga muvofiq bajarilgan ishlari hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0.3 foizi miqdorida jarima to'laydi.

45. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.50 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiyamatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilga nuqsonlar va kachiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlari qiyamatining 0.3 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlari qiyamatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

46. Agar bajarilgan ishlari sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalari, ish hujjatlariga muvofiq bo'limsa, u holda Buyurtmachi "Davarxitekteurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'limagan ishlari qiyamatining 0.3 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

47. SHartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananidan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

48. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## XIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

49. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

## XIV. ALOHIDA SHARTLAR

50. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

51. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpu'dratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

52. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular amaldagi konunlarga asoslangan ravishda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

53. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahslashuvni asoslangan xolda rasmiylashtirilishi va amaldagi konunlarga asoslanib tasdiqlashi kerak.

54. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlari yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsса, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlari uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmag'an boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

57. SHartnomalar taraflar tomonidan imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va amal kilish muddati "31" dekabr 2022 yilgacha hisoblanadi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI  
VA YURIDIK MANZILLARI:

«Pudratchi»  
"GREAT-FUTURE-CONSTRUCTION" x/k  
(ijrochining nomi)  
Manzili: Nurota tumani  
Ibn Sino MFY  
tel/faks 99-061-56-50  
x\#r 20208000600912330001  
bank nomi Nurota tuman agro banki  
00214 INN 305 711 986  
OKONX \_\_\_\_\_

Raxbar



«Byurtmachi»  
Nurota tuman XTBga qarashli 52-maktab  
(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)  
manzili Nurota tumani  
M.Raximov kuchasi  
tel/faks 97-321-22-79  
sh\xv 100022860122387092100075075  
bank nomi Markaziy bank Toshkent  
MFO 00014 INN 200 030 979  
OKONX \_\_\_\_\_  
G'aznachilik bo'lim nomi: Nurota  
Tuman G'aznachilik bo'linmasi

Raxbar

B.Bobonazarov



MFO



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**№**

**1. Loyihaning turi:**

Shartnoma

**2. Loyihaning nomi:**

Pudrat shartnomasi

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Nurota tuman xalq ta'lif bo'limi, 10.03.2022 yil

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

**XULOSA:**

Nurota tuman xalq ta'lif bo'limi va "GREAT-FUTURE-CONSTRUCTION" X/K o'rtaida umumiy summasi 196 500 500 (bir yuz to'qson olti million besh yuz ming besh yuz) so'm bo'lgan pudrat shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018-yildagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son Qarori talablari asosida tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi" 670-I-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



Sh.Soliyev

16.03.2022-yil